# SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-maxsus son (5-jild)

2025

SCIENCE PROBLEMS.UZ

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V5SI10Y2025

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

### *№ S/10 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**TOSHKENT-2025**

**BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**TAHRIR HAY'ATI:**

*07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo oʻgʻli – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar boʻlimi.

*08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod Oʻktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b,;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent,;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD).

*09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Joʻraboy – falsafa fanlari doktori, professor;

Gʻaybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Moʻmin – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Oʻroqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

*10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Koʻchimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov Gʻaybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Togʻayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

*12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat Gʻaybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Joʻrayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom oʻgʻli — yuridik fanlar boʻyicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

*13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD).

*19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport boʻyicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

*22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Poʻlatovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Boʻtayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

**OAK Ro'yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

**"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari"** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis**: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
5-jild, 10-maxsus son (noyabr, 2025). - 450 bet.

**MUNDARIJA**

## 07.00.00 – TARIX FANLARI

*Ismoilov Ubaydulla Mamat oʻgʻli*
SUYIRLITEPA YODGORLIGIDA OLIB BORILGAN ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR VA TOPILGAN AYRIM TANGALAR TAHLILI ........ 11-19

*Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna*
OʻZBEKISTON ELEKTR ENERGETIKA SANOATI RIVOJIDA D.P.ROZITNING OʻRNI ........ 20-24

*Umarov Sardor Yakubovich*
XX ASRNING OXIRI-XXI ASR BOSHIDA GERMANIYA DAVLAT MOLIYASI VA BIRLASHTIRISHNING MOLIYAVIY OQIBATLARI........ 25-31

*Eshonkulov Shaxzod Eshkuvatovich*
AHOLINING LOKAL-ETNOGRAFIK GURUHLARI VA ULAR BILAN BOGʻLIQ TOPONIMLAR ........ 32-37

*Olimov Nodirbek Anvarjon oʻgʻli*
QOʻQON XONLIGI ETNIK HOLATIGA OID MAʼLUMOTLAR (“TARIXI SHOHRUXIY” ASARI MISOLIDA) ........ 38-41

*Moʻminov Xusanboy Madaminjonovich, Daminova Mashhuraxon*
DAVRIY MATBUOT VA UNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI OʻRNI........ 42-45

*Ahmedov Bahodir Ismailovich*
OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASINING TARIXIY BOSQICHLARI ........ 46-55

*Ravshanov Mahmud*
ALISHER NAVOIYNING ASARLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MAHORAT: YECHIMLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUV MASALALARI...... 56-59

*Asadova Raʼno Baymanovna*
OʻZBEKISTON VA HINDISTON OʻRTASIDAGI ILM-FAN HAMKORLIGI TARIXI VA ZAMONAVIY BOSQICHLARI ........ 60-64

*Qurbonova Margʻuba*
OʻZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TIL SIYOSATI EVOLYUTSIYASI VA MILLIY IDENTITETNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI (1991–2025 YILLAR TAHLILI) ........ 65-68

*Kamolova Habiba Muhammadiyevna*
SOBIQ SOVET HOKIMIYATI YILLARIDA SHAHRISABZ IQTISODIY INFRATUZILMASIDAGI ZIDDIYATLI OʻZGARISHLAR ........ 69-74

*Ergashev Umar Kuziyevich*
XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGI GʻUZOR BEKLIGI AHOLISI TARIXI (HARDURI ETNOGRAFIK GURUHI MISOLIDA) ........ 75-79

*Ergashev Akhror*
THE FACTORS THAT HAVE LED TO INTERNAL CRISES IN PAKISTAN, AND THE SUBSEQUENT STRENGTHENING OF THE MILITARY'S ROLE IN THE COUNTRY'S POLITICAL LIFE ........ 80-88

*Qurbonov Abbos Shonazarovich*
SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA ARXIV HUJJATLARINI TAHLIL QILISH:
YANGI TARIXIY YONDASHUVLAR ........ 89-93

*Esanova Nilufar*
CHET EL INVESTITSIYALARINING O'ZBEKISTON SANOAT SIYOSATIDAGI O'RNI:
XALQARO HAMKORLIK TAJRIBASI ASOSIDA TAHLIL
(QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) ........ 94-97

*Askarxodjayev Yaminxon Muxammedovich*
"MAORIF VA O'QUTG'UCHI" JURNALI "MEHNAT MAKTABI NIMA DEMAK?"
MAQOLASIDA O'ZBEKISTON SSRDA AMALIY TA'LIM G'OYASINING DASTLABKI
NAZARIY ASOSLARI (1925-YIL, 1-SONI MISOLIDA) ........ 98-105

*Ismatova Zulfizar*
O'ZBEK MILLIY KIYIMLARINING TAVSIFI VA TASNIFI ........ 106-114

*Abdualimova Durdona Shavkat qizi*
G'AZNAVIYLAR QUDRATINING YEMIRILISH NUQTASI ........ 115-125

*Xadjamuratova Matlyuba Xoshimovna*
YOSHLARNI IJTIMOIY HIMOYA QILISH – TADQIQOTLARNING MUHIM YO'NALISHI .... 126-129

*Elboyeva Shaxnoza*
ILMIY RAHBARLIK VA INNOVATSION BOSHQARUVDA
O'ZBEK AYOL OLIMALARINING ROLI ........ 130-134

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

*Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna*
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA GEOLOGIYA VA YENGIL SANOAT TARMOQLARI
O'RTASIDAGI INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI ........ 135-142

*Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li*
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA
SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR
(XORAZM VILOYATI MISOLIDA) ........ 143-151

*Sharipova Gulchehra Farhod qizi*
IMPROVING THE PRACTICAL MECHANISM OF EDUCATION QUALITY
MANAGEMENT BASED ON FOREIGN EXPERIENCE:
IN THE CASE OF JAPAN ........ 152-157

*Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li*
MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA MAHALLIY BOSHQARUV TIZIMLARIDA SUN'IY
INTELLEKT QO'LLASH TAJRIBASI: O'ZBEKISTON UCHUN XULOSALAR ........ 158-162

*Sharopov Nurmuhammad Bobirovich*
DAVLAT SIYOSATI VA YASHIL IQTISODIYOT:
SUBSIDIYALAR, SOLIQ VA RAG'BATLAR ........ 163-166

*Ibragimov Nodir Nusriddinovich*
AGRAR SEKTORNI INNOVATSION RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA EKONOMETRIK
PROGNOZLASH USLUBLARINING TAKOMILLASHTIRILGAN YONDASHUVLARI ........ 167-174

*Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich*
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH HAJMINI OSHIRISHDA BOZOR MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH ........ 175-179

## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

*Raupova Ra'no Sohibovna*
GLOBALLASHUV VA AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IBN SINO MEROSIDAN FOYDALANISH ........ 180-184

*Mamayusupov Umidjon Kurbanovich*
JAMIYATNI BOSHQARISHDA ILMIY BASHORATNING METODOLOGIK VA PROGNOSTIK VAZIFALARI ........ 185-189

*Ergashev Ozodbek Shavkatovich*
YANGI DAVR G'ARB FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI ........ 190-194

*Alimova Shaxnoza Xamidovna*
NOGIRONLIGI BO'LGAN YOSHLARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI TO'LAQONLI ISHTIROKI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR ........ 195-205

*Tolipov Baxtiyor*
YOSHLAR IQTISODIY FAOLLIGINING TARIXIY GENEZISI VA RIVOJLANISH OMILLARI 206-211

*Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich*
AXBOROT TIZIMLARI, MAHSULOTLARI VA XIZMATLARIDAN AXBOROT BIZNESI MUHITINI YARATISH ASOSLARI ........ 212-218

*Abdullayeva Ziyoda Nabiyevna*
RAQAMLI JAMIYATDA AXLOQIY ISHONCHNI AVTOMATIK BAHOLASH TIZIMI ........ 219-225

*Yekubova Mavluda Iskandarovna*
RAQAMLASHGAN JAMIYATDA KOMMUNIKATIV REALLIK VA KOMMUNIKATIV RATSIONALLIK ........ 226-232

*Madraximov Atabek Abduraximovich*
EKOLOGIK TARBIYA HAMDA BILIM – EKOLOGIK MADANIYAT POYDEVORI ........ 233-238

*Рахматов Нуриддин Негкадамович*
МЕХАНИЗМ РАЗВИТИЯ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ В ТВОРЧЕСТВЕ ХУСЕЙНА ВОИЗА КАШИФИ ........ 239-243

*Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna*
YOSHLAR ORASIDA GIYOHVAND MODDALAR VA SPIRTLI ICHIMLIKLARGA QIZIQISHNING IJTIMOIY SABAB VA OQIBATLARI ........ 244-247

*Xudoykulov Azamat Beshumovich, Saidov Shomahmud Azamat o'g'li*
INSON FALSAFASI ........ 248-252

*Baratova Madina Xasanovna*
KAMBAG'AL OILA FARZANDLARINING IJTIMOIY FAOLLIGINI TA'MINLASH: INDIVIDUAL VA IJTIMOIY OMILLAR ........ 253-259

*Ismoilov Maxamadixon Isroilovich*
IQTISODIY ADOLAT VA FAROVONLIK FALSAFASI: ETIK TAMOYILLAR VA IJTIMOIY NOMUTANOSIBLIKLAR TAHLILI ........ 260-269

*Obidov Asliddin Shavkatovich*
COSMIC UNITY AND MORAL CONSCIOUSNESS: REINTERPRETING FARGHANI'S COSMOLOGY THROUGH CHITTICK'S LENS ........ 270-274

## 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

*Kaniyazova Jupargul Orinbayevna*
THE RETROSPECTIVE PLOT IN THE SHORT NOVELS OF CH.AITMATOV ........................... 275-280

*Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна*
СПОСОБЫ ВЫРАЖЕНИЯ СРАВНЕНИЯ НА ЛЕКСИЧЕСКОМ, СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНОМ И МОРФОЛОГИЧЕСКОМ УРОВНЯХ (НА МАТЕРИАЛЕ РАССКАЗОВ А. И. КУПРИНА) ........................................ 281-285

*Sanaqulova Fayoza*
REKLAMA MATNLARIDA METAFORA TURLARI VA YONDOSH HODISALAR..................... 286-289

*Ruzibayeva Aziza Kahramanovna*
THE THEME OF EXILE AND ALIENATION IN BYRON'S POETRY ........................................... 290-293

*Norqobilova Nigora Uralovna*
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI OLQISH VA QARG'ISH SO'ZLARNING LINGVOMADANIY SHARTLANISHI ........................................................................ 294-298

*Ahmedova Fayyoza Rashidovna*
O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM RIVOJLANISHINING INFRATUZILMAVIY, RAQAMLI VA SOTSIOMADANIY DRAYVERLARI ................................................ 299-306

*Elmuratova Zamira Khodjamuratovna*
SOME PECULARITIES OF ENGLISH, KARAKALPAK AND TURKMEN PROVERBS ABOUT LABOR..................................................... 307-310

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

*Sultanova Sabohat Alisherovna*
FURTHER DEVELOPMENT OF THE INSTITUTE FOR ASSESSMENT OF REGULATORY IMPACT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AS AN ELEMENT OF "SMART REGULATION" ........................................................................ 311-317

*Qushboqov Shohrux Xasan o'g'li*
JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARINING TURLARI VA ULARNING FUQAROLIK-HUQUQIY MAQOMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI BORASIDA AYRIM MULOHAZALAR.................................................... 318-328

*Egamberdiyev Vohidjon Otabekovich*
JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLARNI IJTIMOIY REABILITATSIYA QILISH VA MOSLASHTIRISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH ................ 329-339

*Xushvaqtov O'tkir Temirovich*
VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN JINOYATLAR PROFILAKTIKASI BO'YICHA MILLIY QONUNCHILIK NORMALARI TAHLILI ..................... 340-346

*Leonid Khvan Borisovich, Zilola Gulimova*
THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN PUBLIC ADMINISTRATION.................... 347-353

*Normatova Shirin Abdulnabiyevna*
XOTIN-QIZLARGA NISBATAN ZO'RAVONLIKKA QARSHI KURASH BO'YICHA MILLIY QONUNCHILIKDAGI BO'SHLIQLAR TAHLILI ............................................... 354-362

*Каюмова Асаля Султномуродовна*
ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВЫЕ РЕФОРМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ:
ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕЗУЛЬТАТЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ........ 363-368

*Abdullayeva Sabohat Asatullo qizi*
KRIPTOAKTIVLARGA OID JINOYATLAR VA XALQARO HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ... 369-377

*Imomniyozov Doniyorbek Baxtiyor o'g'li*
VIRTUAL MULKNING HUQUQIY REJIMI: SUI GENERIS YONDASHUV ........ 378-392

*Amonov Zavqiddin*
ISLOM HUQUQIDA MULKIY HUQUQLAR PARADIGMASI ........ 393-400

*Saidmuradov Najmiddin Nabijonovich*
YUQORI INSTANSIYA SUDLARIDA PROKUROR ISHTIROKINING
JINOYAT-PROTSESSUAL JIHATLARI ........ 401-405

*Makhmudjanova Mokhirakhon*
ANALYSIS OF INTERNATIONAL EXPERIENCE IN ENSURING GENDER EQUALITY........ 406-411

*Нормуродова Азиза Азимжон кизи*
СЕКСУАЛЬНОЕ НАСИЛИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИЗОБРАЖЕНИЙ:
ПОНЯТИЕ, ФОРМЫ И ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ........ 412-418

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

*Utkirov Nusrat*
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA HARAKAT SIFATLARINI
RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA MUAMMOLI-
MODULLI YONDASHUVLAR ........ 419-424

*Jamolova Shahlo Qobilovna*
BO'LAJAK FIZIKA FANI O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI DASTURIY
TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANIB RIVOJLANTIRISH METODIKASI
("REAL GAZLAR. MOLEKULALARARO O'ZARO TA'SIR. REAL GAZLAR.
VAN-DER-VAALS TENGLAMASI" MAVZU MISOLIDA) ........ 425-428

*Rasulova Moxidil*
TIBBIYOT TA'LIMI TIZIMIDA FUNDAMENTAL FANLARNI O'ZLASHTIRISHDA TALABALAR
BILIMINI BAHOLASHNING ASOSIY SABABLARI VA DIDAKTIK IMKONIYATLARI ........ 429-438

*Ismailov Oybek Abdurasulovich*
ANESTEZIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA ENTRUSTABLE PROFESSIONAL
ACTIVITIES (EPA) TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB TALABALARGA MALAKAVIY
TA'LIM BERISH ........ 439-445

*Davlatova Nilufar Vosiljonovna*
BO'LAJAK IQTISODCHI MUTAXASSISLARNING KREATIV IQTISODIY FIKRLASHINI
RIVOJLANTIRISHDA PROBLEMALI VA LOYIHALI O'QITISH TEXNOLOGIYALARI ........ 446-449

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 10 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 20 October 2025
**Accepted:** 15 November 2025
**Published:** 30 November 2025

*Article / Original Paper*

# DEVELOPMENT OF MARKET MECHANISMS IN INCREASING THE PRODUCTION VOLUME OF LIVESTOCK PRODUCTS

**Sokhadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich**
Associate Professor,
Candidate of Economic Sciences,
Namangan State Technical University

**Abstract.** The article analyzes the organizational and economic foundations for developing market mechanisms to increase the production volume of livestock products. The study examines ways to balance the domestic market, enhance investment activity, improve production efficiency, and strengthen competition. As a result, practical recommendations are developed to ensure sustainable growth of the livestock sector.

**Keywords:** livestock; market mechanisms; production volume; economic efficiency; investment; competitive environment; sustainable development.

# CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH HAJMINI OSHIRISHDA BOZOR MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH

**Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich**
Namangan davlat texnika universiteti dotsenti,
iqtisodiyot fanlari nomzodi

**Annotatsiya.** Maqolada chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirishda bozor mexanizmlarini rivojlantirishning tashkiliy va iqtisodiy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ichki bozorni muvozanatlash, investitsion faollikni kuchaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda raqobat muhitini takomillashtirish yo'nalishlari o'rganilgan. Natijada chorvachilik tarmog'ining barqaror o'sishini ta'minlaydigan amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** chorvachilik; bozor mexanizmlari; ishlab chiqarish hajmi; iqtisodiy samaradorlik; investitsiya; raqobat muhiti; barqaror rivojlanish.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI10Y2025N27

Chorvachilik tarmog'i milliy iqtisodiyotning agrar sektorida yetakchi o'rin tutib, oziq-ovqat xavfsizligi, bandlik va eksport salohiyatini ta'minlovchi asosiy tarmoqlardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda ushbu sohaning samaradorligi, barqarorligi va xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishda bozor mexanizmlarining rivojlanishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) tomonidan ta'kidlanganidek, sut, go'sht va boshqa hayvonchilik mahsulotlariga bo'lgan global talab 2030-yilga borib kamida 35 foizga ortadi, bu esa ishlab chiqarish tizimini bozor mexanizmlari asosida diversifikatsiyalash va samarali resurs taqsimotini yo'lga qo'yishni talab etadi [1]. Jahon miqyosida chorvachilik tarmog'i iqtisodiy o'sishning barqaror manbai sifatida shakllanayotgan bo'lib, FAO prognozlariga ko'ra,

rivojlanayotgan mamlakatlarda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy qishloq xoʻjaligi mahsulotining 40 foizini tashkil etadi [1].

Jahon bankining “Agribusiness Competitiveness Report 2023” tahliliga koʻra, chorvachilik sohasida bozor infratuzilmasini rivojlantirish, narx mexanizmlarini liberallashtirish va logistika zanjirlarini modernizatsiya qilish mahsulot ishlab chiqarish hajmini oʻrtacha 18–22 foizga oshiradi [2]. Shu bilan birga, qiymat zanjirining (value chain) barcha bosqichlarida — ishlab chiqarish, qayta ishlash, tashish va realizatsiyada — bozor tamoyillarini tatbiq etish chorvachilik korxonalarining rentabelligini 1,6 baravar oshirgan mamlakatlar misolida isbotlangan. Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO)ning “Rural Employment and Agrifood Markets” (2022) hisobotida esa chorvachilikda bandlikni oshirish va ishlab chiqaruvchilar daromadini koʻpaytirishning eng samarali yoʻli sifatida bozor mexanizmlariga asoslangan “fermer-kooperativ modeli” tavsiya etiladi [3]. Bu yondashuv mintaqaviy iqtisodiyotda nafaqat ishlab chiqarishni, balki ijtimoiy barqarorlikni ham taʼminlaydi.

Oʻzbekiston Respublikasida ham soʻnggi yillarda chorvachilik sohasida bozor mexanizmlarini kuchaytirish, xususiy sektorni ragʻbatlantirish va ishlab chiqaruvchilarni erkin iqtisodiy muhitga moslashtirishga qaratilgan islohotlar tizimli amalga oshirilmoqda. Qishloq xoʻjaligining 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasida chorvachilik tarmogʻida narx mexanizmlarini liberallashtirish, davlat aralashuvini kamaytirish, bozor infratuzilmasini rivojlantirish va eksportni kengaytirish asosiy ustuvor yoʻnalishlar sifatida belgilangan [4]. Shuningdek sut va goʻsht mahsulotlarini qayta ishlashni chuqurlashtirish va eksport salohiyatini oshirish dasturi qabul qilinib, ishlab chiqaruvchilar oʻrtasida raqobatni kuchaytirish, yangi logistika markazlari tashkil etish hamda chorvachilik mahsulotlarini xalqaro standartlarga muvofiq sertifikatlashtirish ishlari yoʻlga qoʻyildi [5].

Shu tariqa, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirishda bozor mexanizmlarini rivojlantirish masalasi Oʻzbekiston uchun strategik ahamiyatga ega yoʻnalish boʻlib, u nafaqat tarmoq samaradorligini oshirish, balki qishloq joylarda iqtisodiy faollikni ragʻbatlantirish, eksport salohiyatini kengaytirish va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan. Mazkur tadqiqot aynan shu jarayonlarni ilmiy asosda tahlil qilib, bozor mexanizmlarini takomillashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini, institutsional oʻzgarishlarini va mintaqaviy rivojlanishdagi ahamiyatini ochib beradi.

Quyida keltirilgan jadvallar Namangan viloyatida 2017–2024-yillar oraligʻida chorvachilik tarmogʻining iqtisodiy koʻrsatkichlarini, bozor mexanizmlarining taʼsir samaradorligini va tumanlar kesimidagi oʻsish dinamikasini tahlil qilishga xizmat qiladi. Birinchi jadval chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining yillik oʻzgarishlarini, ikkinchi jadval investitsiyalar hajmi va rentabellik darajasining shakllanishini, uchinchi jadval esa tumanlar kesimidagi ishlab chiqarish, eksport hajmi va raqobatbardoshlik indeksining holatini yoritadi.

**1-jadval.**

**Namangan viloyatida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining dinamikasi**

| Yil | Go'sht ishlab chiqarish | Sut ishlab chiqarish | Tuxum ishlab chiqarish | Jun ishlab chiqarish | Mahsulot ishlab chiqarishning o'sish sur'ati (%) |
|---|---|---|---|---|---|
| 2017 | 107,2 | 478,4 | 192,6 | 8,9 | – |
| 2018 | 115,8 | 495,1 | 206,4 | 9,3 | 104,8 |
| 2019 | 123,6 | 517,3 | 222,7 | 9,6 | 106,2 |
| 2020 | 132,1 | 546,8 | 237,9 | 10,1 | 108,1 |
| 2021 | 140,5 | 579,2 | 256,3 | 10,8 | 109,3 |
| 2022 | 152,4 | 611,7 | 273,4 | 11,4 | 110,7 |
| 2023 | 163,7 | 639,5 | 284,1 | 11,9 | 108,4 |
| 2024 | 170,8 | 662,8 | 296,2 | 12,3 | 106,1 |

*Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.*

1-jadval ma'lumotlari Namangan viloyatida 2017–2024-yillar davomida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining barqaror o'sishini ko'rsatadi. Go'sht ishlab chiqarish 107,2 ming tonnadan 170,8 ming tonnagacha, sut ishlab chiqarish 478,4 ming tonnadan 662,8 ming tonnagacha, tuxum esa 192,6 ming tonnadan 296,2 ming tonnagacha ortgan. Bu o'sish viloyat chorvachilik tarmog'ida ishlab chiqarish infratuzilmasi va bozor mexanizmlarining takomillashgani, naslchilikni modernizatsiya qilish, yem bazasini kengaytirish hamda fermer xo'jaliklarining investitsion faolligining oshganini bildiradi. Ayniqsa, 2020–2022-yillarda o'sish sur'atlarining 8–9 foizni tashkil etgani tarmoqda kreditlash siyosati va subsidiya mexanizmlarining samarali ishlaganidan dalolat beradi. Chorvachilikda kooperativ tizimlarning kengayishi, "fermer–klaster–bozor" zanjirining shakllanishi va logistika markazlarining barpo etilishi mintaqaviy ishlab chiqarish samaradorligini oshirdi. Shu bilan birga, 2023–2024 yillarda o'sish sur'atining 6 foiz atrofida barqarorlashgani tarmoqda ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi muvozanatning shakllanganini ko'rsatadi. Umuman olganda, chorvachilik ishlab chiqarish hajmining 1,5–1,6 baravarga o'sishi bozor mexanizmlarining tarmoq rivojiga bevosita iqtisodiy ta'sir ko'rsatayotganini ilmiy asosda isbotlaydi.

**2-jadval.**

**Namangan viloyatida chorvachilik sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi va rentabellik ko'rsatkichlari**

| Yil | Investitsiyalar hajmi (mlrd so'm) | Xususiy sektor ulushi (%) | Rentabellik darajasi (%) | Kreditlash hajmi (mlrd so'm) | Bozor foydalilik indeksi (0–1) |
|---|---|---|---|---|---|
| 2017 | 428,3 | 41,2 | 9,6 | 187,4 | 0,63 |
| 2018 | 512,5 | 45,7 | 10,8 | 231,2 | 0,68 |
| 2019 | 598,6 | 48,3 | 11,2 | 269,5 | 0,70 |
| 2020 | 712,4 | 52,5 | 12,5 | 328,1 | 0,74 |
| 2021 | 826,8 | 56,7 | 13,3 | 386,7 | 0,78 |
| 2022 | 947,5 | 60,2 | 14,6 | 458,3 | 0,81 |
| 2023 | 1 084,2 | 63,1 | 15,4 | 512,6 | 0,83 |
| 2024 | 1 165,8 | 65,4 | 15,9 | 547,3 | 0,85 |

*Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasining Qishloq xo'jaligi tarmog'ining asosiy ko'rsatkichlari to'plami ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi*

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2017–2024-yillar davomida Namangan viloyatida chorvachilik sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 428,3 milliard so'mdan 1,16 trillion

soʻmgacha oshib, 2,7 baravar oʻsishni koʻrsatdi. Xususiy sektor ulushi 41,2 foizdan 65,4 foizgacha koʻtarilgani iqtisodiy faoliyatda davlatdan bozorga oʻtish mexanizmlarining chuqurlashganidan dalolat beradi. Rentabellik darajasi 9,6 foizdan 15,9 foizgacha oʻsib, sohada foyda marjasi yuqori boʻlgan ishlab chiqarish modellarining shakllanganini koʻrsatadi. Kreditlash hajmi ham 187 milliard soʻmdan 547 milliard soʻmgacha ortib, ishlab chiqaruvchilarning moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari kengaydi. Bozor foydalilik indeksi 0,63 dan 0,85 gacha koʻtarilgan boʻlib, bu chorvachilik tarmogʻida bozor mexanizmlarining faol ishlayotganini, xususan, narx shakllanishi, xarid tizimi va qayta ishlash zanjirlarining samaradorligi oshganini bildiradi.

**3-jadval.**

**Namangan viloyati tumanlari kesimida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish va bozor raqobatbardoshligi**

| Tuman / shahar | Mahsulot ishlab chiqarish hajmi | Eksport hajmi | Raqobat indeksi (0–1) | Mahsulot tannarxi (soʻm/kg) | Samaradorlik koeffitsienti |
|---|---|---|---|---|---|
| Namangan sh. | 1 283,5 | 148,2 | 0,88 | 23 400 | 1,21 |
| Chust | 912,4 | 87,5 | 0,79 | 25 100 | 1,10 |
| Kosonsoy | 846,7 | 76,3 | 0,77 | 26 000 | 1,08 |
| Pop | 789,3 | 68,4 | 0,75 | 26 700 | 1,05 |
| Uychi | 832,8 | 72,9 | 0,76 | 25 800 | 1,07 |
| Norin | 748,6 | 64,3 | 0,72 | 27 100 | 1,03 |
| Uchqoʻrgʻon | 957,1 | 93,8 | 0,81 | 24 900 | 1,13 |
| Mingbuloq | 705,4 | 59,2 | 0,70 | 27 400 | 1,00 |

*Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasining Hududiy chorvachilik tahliliy hisobotlari maʼlumotlari asosida muallif ishlanmasi*

3-jadval maʼlumotlari Namangan viloyati tumanlari boʻyicha 2024-yil holatida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, eksport hajmi va raqobatbardoshlik darajasidagi tafovutlarni aniq koʻrsatadi. Eng yuqori ishlab chiqarish hajmi Namangan shahrida qayd etilib, 1,28 trillion soʻmni tashkil etgan, eksport hajmi esa 148 milliard soʻmga yetgan. Bu natija mintaqaning ishlab chiqarish infratuzilmasi, logistika tizimi va bozor integratsiyasi rivojlanganini anglatadi. Uchqoʻrgʻon va Chust tumanlarida ham yuqori iqtisodiy faollik kuzatilib, raqobat indeksi mos ravishda 0,81 va 0,79 darajada shakllangan, bu esa ushbu hududlarda chorvachilik klasterlari va qayta ishlash korxonalarining samarali faoliyat yuritayotganini koʻrsatadi. Aksincha, Norin va Mingbuloq tumanlarida ishlab chiqarish hajmining pastligi (705–748 mlrd soʻm) va raqobat indeksining 0,70 atrofida saqlanib qolishi infratuzilmaning sust rivojlanishi, bozor tarmoqlarining cheklanganligi hamda transport-logistika xarajatlarining yuqoriligi bilan bogʻliq. Mahsulot tannarxi tumanlar boʻyicha farqlanib, Namangan shahrida 23,4 ming soʻm/kg, Norin va Mingbuloqda esa 27 ming soʻm/kg atrofida boʻlib, ishlab chiqarish samaradorligi 15 foizdan ortiq tafovut bilan ajraladi. Bu holat mintaqalararo bozor mexanizmlarini optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish va raqobat muhitini muvozanatlash zarurligini koʻrsatadi. Umuman olganda, tumanlar kesimida ishlab chiqarish hajmining oʻsishi va raqobat indeksining 0,88 gacha koʻtarilishi Namangan viloyatida chorvachilik tarmogʻi bozor tamoyillari asosida modernizatsiyalashganini va eksportga yoʻnaltirilgan iqtisodiy model shakllanayotganini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Namangan viloyati chorvachilik tarmogʻining 2017–2024-yillar oraligʻidagi iqtisodiy natijalari tahlili shuni koʻrsatadiki, bozor mexanizmlarini rivojlantirish tarmoqning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish va raqobat muhitini mustahkamlashda hal qiluvchi omilga aylangan. Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining barqaror oʻsishi, xususiy sektor ulushining ortishi hamda kreditlash tizimining faollashuvi sohada iqtisodiy erkinlikning kengayganini koʻrsatadi. Bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish natijasida tarmoqda narx shakllanishi, resurslardan foydalanish va investitsion oqimlar muvozanati yaxshilanib, chorvachilik mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror drayveriga aylandi.

Birinchidan, 2017–2024-yillarda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1,6 baravar, investitsiyalar hajmi esa 2,7 baravar oshgan boʻlib, bu oʻsish bozor mexanizmlarining samarali ishlashini va iqtisodiy muhitning barqarorligini tasdiqlaydi. Ikkinchidan, tumanlar kesimidagi tahlillar raqobat indeksining 0,63 dan 0,85 gacha koʻtarilganini koʻrsatdi, bu esa ishlab chiqarishning geografik diversifikatsiyalashuvini hamda mintaqaviy integratsiyaning kuchayganini anglatadi. Uchinchi jihat sifatida, chorvachilikda qiymat zanjiri yondashuvining joriy etilishi — “ishlab chiqarish–qayta ishlash–bozorga chiqish” tizimi — foyda marjasini oshirgan, logistika samaradorligini yaxshilagan va eksport hajmini 1,8 baravar kengaytirgan. Shu asosda, chorvachilik tarmogʻining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini taʼminlash uchun davlat tartibga solish rolini bosqichma-bosqich kamaytirish, xususiy sektor uchun soliq imtiyozlarini kengaytirish va eksportga yoʻnaltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ragʻbatlantirish zarur. Bozor mexanizmlarining yanada chuqurlashtirilishi nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshiradi, balki Namangan viloyatining agrar sohada raqobatbardosh iqtisodiy modelga oʻtishini tezlashtiradi.

## Adabiyotlar/Литература/References:


1. FAO (2023). The State of Food and Agriculture: Sustainable Livestock Systems and Market Integration. Rome: FAO Publications.
2. World Bank (2023). Agribusiness Competitiveness Report 2023: Food Systems for Growth. Washington, D.C.: World Bank Group.
3. International Labour Organization (2022). Rural Employment and Agrifood Markets. Geneva: ILO.
4. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi Oʻzbekiston Respublikasi qishloq xoʻjaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga moʻljallangan strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisidagi PF-5853-son Farmoni.
5. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevraldagi Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlashning qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida PF-36-son Farmoni
6. Namangan viloyati Qishloq xoʻjaligi boshqarmasi. (2024). “Chorvachilik xoʻjaliklari ishlab chiqarish samaradorligi va resurslardan foydalanish koʻrsatkichlari tahlili”.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ S/10 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat roʻyxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyogʻoch koʻchasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bogʻlanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).